

ALISHER NAVOIYNING “MEZON UL-AVZON” ASARIDAGI VAZN TURLARI VA ARUZDAGI BIRLIKLAR TAHLILIGA OID

Yo’ldoshev Ibrohim Jo’rayevich

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika
universiteti Filologiya fakulteti “O’zbek tili va
adabiyoti” kafedrasida filologiya fanlari doktori,
professor.*

E-mail: ibrohimiuldoshev0101@gmail.com

Abdirasulova Nurhayot Quvondiq qizi

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika
universiteti Filologiya fakulteti O’zbek tili va
adabiyoti yo’nalishi I-bosqich talabasi.*

E-mail: abdurasulovanurhayot@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o’zbek adabiyotining buyuk namoyandasi, mumtoz she’riyat asoschisi, yuksak ma’rifatparvar va so’z sultoni Alisher Navoiy qalamiga mansub nodir ilmiy-nazariy asarlardan biri – “Mezon ul-avzon” asari tahlil markaziga olingan. Tatqiqotda ushbu asarda tilga olingan nazariy manbalar, ularning poetik hamda ilmiy ahamiyati, aruz ilmi bilan bog’liq qarashlarning mohiyati atroflicha o’rganilgan. Vaholanki, bu maqolada vazn turlari va ularning o’zbek tilidagi qo’llanish doirasi va ma’no ko’lamlari tahlil qilinadi. Shuningdek, “Mezon ul-avzon”dagi ilmiy terminlar, ularning arab-fors manbalari bilan bog’liqligi masalalari ilgari surilgan. Ta’kidlash joizki, Navoiy shu darajada qalam tebratadi-ki, uni o’qigan, eshitgan insonlarning ongiga sehrli og’u kabi kirib keladi. U har bir asaridagi nafaqat oddiy so’zni balki jumhalarni ham ham mohirlik bilan qo’llagan. “Mezon ul-avzon” asari so’z san’atining takrorlanmas va nodir asarlaridan bo’lib, aruz ilmi bilan bog’liq jihatlarni ochib beradi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, “Mezon ul-avzon”, juzv, sabab, vatad, fosila, rukn, bahr, aruz, doira.

Annotation. This article analyzes one of the rare scientific and theoretical works by the great representative of Uzbek literature, the founder of classical Sharia, the great intellectual and sultan of words Alisher Navoi, Mezon ul-Awzon. The study comprehensively analyzes the theoretical sources mentioned in this work, their poetic and scientific significance, and the essence of the views on the science of aruz. However, this article analyzes the types of verse and their scope of use and meanings in the Uzbek language. It also puts forward the scientific terms in Mezon ul-Awzon, their connection with Arab-Persian sources. It is worth noting that Navoi wields his pen to such an extent that it enters the minds of those who read and listen to it like a magic wand. He skillfully memorized not only simple words in each of his works, but also sentences. The work Mezon ul-Awzan is one of the unique and rare works of the art of speech, revealing aspects related to the science of aruz.

Keywords: Alisher Navoi, Mezon ul-Awzan, juzv, sabab, watad, fossil, rukn, bahr, aruz, doira.

Аннотасия. В данной статье анализируется один из редких научно-теоретических трудов великого представителя узбекской литературы, основоположника классического шариата, великого мыслителя и султана слова Алишера Навои «Мезон уль-Авзон». В исследовании всесторонне анализируются упомянутые в данном произведении теоретические источники, их поэтическое и научное значение, а также сущность взглядов на науку аруз. В данной статье анализируются виды стихов, сфера их употребления и значения в узбекском языке. Также рассматриваются научные термины, используемые в «Мезон уль-Авзон», их связь с арабо-персидскими источниками. Следует отметить, что Навои настолько искусно владеет своим пером, что оно проникает в сознание читателей и слушателей, словно по мановению волшебной палочки. Он мастерски запоминал не только простые слова в каждом из своих произведений, но и целые предложения. Произведение «Мезон уль-Авзон» – одно из уникальных и редких произведений ораторского искусства, раскрывающее аспекты, связанные с наукой аруз. **Ключевые слова:** Алишер Навои, Мезон уль-Авзон, джузв, сабаб, ватад, ископаемое, рукн, бахр, аруз, дойра.

Ключевые слова: Алишер Навои, Мезон уль-Авзон, джузв, сабаб, ватад, ископаемое, рукн, бахр, аруз, дойра.

Mumtoz she'riyatning asoschisi Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki chuqur bilimga ega olim, tilshunos va nazariyotchi sifatida ham o'z davrining ilg'or siymolaridan biri bo'lgan. U yaratgan asarlar o'zbek tilining boy imkoniyatlarini, she'riyatning nozik sirlarini ochib bergan. Shunday nodir asarlardan biri – “Mezon ul-avzon” [“Vaznlar mezon”] bo'lib, u aruz tizimiga oid ilmiy-nazariy risola sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda Navoiy aruz vaznining turlari, ularning qo'llanish xususiyatlari va she'riyatdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi. “Mezon ul-avzon” o'zbek adabiyoti taraqqiyotida nazariy asos bo'lib xizmat qilgan va bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan durdona asardir. Alisher Navoiy so'zni inson tafakkuri va ma'naviy olamini yorituvchi ilohiy nur sifatida talqin etadi. Shoir nazarida so'z - bu shunchaki fikr ifodasi emas, balki ma'naviy kamolot va ruhiy poklanishning asosiy omil. U har bir so'zga yuksak estetik va axloqiy mazmun yuklab, uni zargarning duriday nozik mahorat bilan sayqal beradi hamda so'z vositasida insonni komillikka chorlaydi. “Mezon ul-avzon” asari tuzilish jihatidan muqaddima, asosiy qism va kichik xotimadan iborat. Muqaddimada, avvalo, Yaratganga hamd va shukrona bayon etilib, so'ng Sulton Husayn Boyqaroning mazkur asarning yaratishiga turtki bergani haqida so'z yuritiladi. Unda ta'kidlashicha, Sulton Husayn Bayqaroni buyuk mutafakkir Amir Xusrav Dehlaviyning 18ming baytdan iborat g'azallarini bir devonga jamlab, ularni yagona devon holiga keltirgan. Xusrav Dehlaviyning ijodidagi ko'plab g'azallar murakkab bahr va vaznlarda yozilgani bois, hatto tajribali shoirlar ham ulami tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelganlar. Ana shunday ehtiyoj natijasida Navoiy tomonidan “Mezon ul-

avzon” yaratilgan bo’lib, bu asar nafaqat aruz tizimini o’rganishga, balki o’zbek she’riyatining nazariy asoslarini shakllantirishga ham xizmat qilgan muhim ilmiy manbadir. “Ushbu asarda 9ta poetik shakl va ularning aruz tizimidagi vaznlar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Bularning aksariyati turkiy xalqlar og’zaki ijod an’analariга mansub bo’lib, shoir ularni xalq orasida shakllangan nomlar bilan og’zaki manbalarda uchragani sababli, Navoiy ularni aruz tizimidagi eng yaqin so’zlar bilan uyg’unlashtiradi, ya’ni aruzdagi vaznlardan qaysi biriga mos bo’lsa, shu vazn nomi bilan ataydi. Ushbu poetik shakllar quyidagilardir: o’n olti ruknli ramali maxbun, tuyuq, qo’shiq, chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkey.”⁴⁶ Mazkur tasnif Navoiy tomonidan turkey poeziya shakllarining nazariy jihatdan mukammal tizimlashtirilgan ilk namunasi sifatida e’tirof etiladi.

Alisher Navoiy so’z san’atiga yuksak ma’naviy mazmun bag’ishlab, uning har ikki jihatiga-tashqi shakli va ichki ma’nosiga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari o’z davrida aruz ilmini chuqur o’rganishga bag’ishlangan ilk mukammal manbalardan biridir. Shoir aruz tizimini nazariy jihatdan asoslab, turkiy she’riyatiga mos shaklda talqin etadi. Navoiy aruz bahrlarini arab va fors she’riyatidagi an’analari asosida tahlil qiladi, ammo ularni turkiy tabiati va ohangdorligiga moslashtirishga harakat qiladi. Aruz fani she’r vaznining o’lchovi, ya’ni she’rni tartibga soluvchi fan. Shu sababli u sharaflari fan sanaladi. Negaki, nazm ilmining martabasi nihoyatda yuksakdir. “Nazm mo’jiza singari bo’lmaganda Tangrining kalomi –Qur’onda nazm bo’lmagan bo’lar edi”,- deydi Navoiy. Bu fikrning dalili sifatida “Mezon ul-avzon”da Kalomullohning ba’zi o’rinlarida fikrning aruz vazni qoidalariga mos ifoda shakllari uchrashiga misollar keltiradi. Ul jumladin biri bu oyatdurkim:

“Lan tanolluvaal birra hatto tunfiquna”

Tarjimasi: “Suygan narsalaringizni infaq-ehson qilib bermaguningizcha hargiz yaxshilikka [jannatga] yetmagaysiz[“Oli Imron surasi, 92-oyat].”⁴⁷ Mazkur oyat ramali musaddasi mahzuf vaznda yozilganidek aruz qoidalariga mos keladi. Demak, aruz vazni qadimdan mavjud, ya’ni Alloh kalomida ham mujassam bo’lgan, bu esa uning ilohiyligini ko’rsatadi. Dastlab, aruzdagi eng kichik birlik - juzvlar talqini bilan tanishsak. Ma’lumki, juzvi [arabcha, “bo’lak”, “qism”, “parcha”, “butun emas”] – mutahharik va sokin harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo’luvchi ritmik bo’lak bo’lib, mumtoz aruzshunoslikda ba’zan “asl”, ba’zan “rukn” atamasi bilan ham yuritilgan. Navoiy ham juzvlar sonini 6 ta deb ta’kidlaydi. Asosan u 3 ta rukn orqali bo’lingan, ya’ni sabab, vatad va hosila. Sababning 2 ta turi mujassam: sababi xafif – bu so’z shunday tovushlardan iboratki, biri harakatli [mutahharik], biri sokin bo’ladi. Masalan, may va nay. Sababi saqiyl esa so’z ikki harakatli tovushdan iborat bo’ladi. Masalan, yuzi va ko’zi. Vatad ham o’z o’rnida 2 ga bo’linadi: vatadi majmu’ va matadi mafruq. Vatadi majmu’ – bu so’zning ikki bosh harfi harakatli, so’nggi harfi sukunli bo’ladi. Masalan, shajar va samar, Xo’tan va Adan. Vatadi mafruq – bu so’zning birinchi va oxirgi harfi harakatli, o’rtadagi harfi sukunli bo’ladi. Fosila ham 2 ga bo’linadi: Fosilai sugro [kichik fosila] – bu so’z 3 ta harakatli va to’rtinchi harfi sukunli bo’ladi. Fosilai kubro [katta fosila] – bu so’z 4ta harakatli va

⁴⁶ Karimova02 (Munizara | hissa) 2023-yil 17-yanvar.”

⁴⁷ <https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/50327>

beshinchi harfi sukunli bo'ladi. Mutafakkirning fikricha, ushbu 3 rukndan hech qaysi birini yolg'iz foydalanib bo'lmaydi. Bularning bari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Uning fikricha: "Va mazmun kalom ta'lif bu arkonning hech qaysinisi to yana birig'a murakkab qilmag'aylar, mustahsan tushmas". Ya'ni ohangdor so'z [vaznli she'r] bu ruknlardan hech birini boshqa rukn bilan birlashtirmasdan tuzilsa, chiroyli chiqmaydi.

Bayt:

Qadi havosidin gahi shajar sari nazar qilay,

Yuzi hayolidin gahi chaman sari guzar qilay.⁴⁸

Bu baytda sabab, vatad va fosila unsurlari uyg'unlashgan bo'lib, ohangdorlik va ritmik muvozanatni ta'minlaydi. Juvlar haqidagi ta'riflardan so'ng asl ruknlar bilan bog'liq tahlillarga o'tiladi. Ya'nikim, juzlar asosida 8 ta rukn paydo bo'ladi:

1. Fauvlun – bir vatadi majmu' [V -] [fauv] va bir sababi xafif [-] [lun] dan iborat bo'ladi [V - -].

2. Foilun – bir sababi xafif [-] [fo] va bir vatadi majmu' [V -] [ilun] dan tarkib topadi [- V -]

3. Mafoiylun – bir vatadi majmu' [V -] "mafo" va bir sababi xafif

[-] "mafo" va bir sababi xafif [-] "iy" hamda yana bir sababi xafif [-] "lun" dan tarkib topadi [V - - -].

4. Mustaf'ilun – ikki sababi xafif [- -] "Mustaf" va bir vatadi majmu'

[V -] "ilun" dan tashkil topadi [- - V -].

5. Foilotun – bir sababi xafif [-] "fo", bir vatadi majmu' [V -] "ilo" va bir sababi xafif [-] "tun" dan tarkib topadi [- V - -].

6. Mafoilatun – bir vatadi majmu' [v -] "mafo" va fosilai sug'ro [V V -]

"ilatun" dan tashkil topadi [V - V V -].

7. Mutafoilun – bir fosilai sug'ro [V V -] "mutafo" hamda bir vatadi majmu' [V -] "ilun" dan iboratdir [V V - V -].

8. Maf'uvlotu – ikki sabab xafif [- -] "maf'uv" va bir vatadi maf'ruq [- V -] "lotu" dan tarkib topadi.⁴⁹

Forsiy aruzda esa asliy ruknlar 7 ta, suratda esa 5 tadir: 1) Mafo'ilun, 2) Va fa'ilotun, 3) Va mustaf'ilun, 4) Va maf'ulotu, 5) Va fa'ulun. Ruknlardan so'ng Navoiy zihof [asl ruknlarni turlicha o'zgartirish] va furu' [tarmoq ruknlar]ga to'xtalib o'tadi. Agar asliy ruknlar kesimida takror qo'llanganlarini inobatga olsak, zihoflar soni 45 ta, furu'lar miqdori 60 ta ekanligi ma'lum bo'ladi. Takror qo'llanganlari deyilganda, mafo'ilunda 11 ta zihofat va 11 ta furu' mavjud. Alisher Navoiy zihofni quyidagicha ta'riflaydi: Va bu besh aslning har biriga necha far'durkim tag'ayurlar sababidinki, ani aruziylar "zihof" derlar, hosil bo'lur. Aruz ilmiga omid navbatdagi tushuncha bu doiralar bo'lib, Navoiyda 7 ta doira keltiriladi. Bu doiralarda faqat ikkitasi ham nomi va ularning kiritilgan bahrlar mosligi jihatidan bir xil, qolganlarida yo doira nomi yoki tarkibidagi bahrlar farqlanadi. Endi bahr tushunchasi bilan tanishamiz. Bahr so'zi

⁴⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 16- tom. Mezon ul- avzon. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2000. – B.42

⁴⁹ Yusupova.D Alisher Navoiyning „ Mezon ul- avzon“ risolasi uchun asos bo'lgan nazariy manbalarning komparativistik tahlili. // Oltin bitiglar. – B.67

arab tilida “dengiz” degan ma’noni ifodalaydi. Aruz tizimida bahr atamasi ruknlarning takroridan hosil bo’luvchi vaznlar turkumi tushuniladi. Bahrning ko’pligi “buhur” so’zi bilan ifodalanadi. “Mezon ul-avzon” asaridagi doiralardan 4 tasi Navoiygacha yaratilgan, ya’ni fors-tojik risolalari “Al-mo’jam” va “Risolayi aruz” da mavjud edi.

	Doira nomi	Bahrlar
1.	Doirayi mu’talifa	Ramal, hazaj va rajaz
2.	Doirayi muxtalifa	Muqtazab, mujtass, munsarik va muzori
3.	Doirayi muntazi’a	Mushokil, sari’, jadid, qarib va xafif
4.	Doirayi muttafiqa	Mutaqorib va mutadorik
5.	Doirayi mujtamia	”Doirayi muxtalifa” dagi 4 ta bahr va “ Doirayi muntazia” dagi 5ta bahr
6.	Doirayi muxtalita	Komil va vofir
7.	Doirayi mushtabiq	Basit, madid, tavil

Qolgan ikkita doira esa ham nomu va ularga kiritilgan bahrlar mosligi jihatidan bir xil, qolganlari yo doira nomi yoki tarkibidagi bahrlar bilan farqlanadi. Navoiyning yozishicha, ushbu bahrlar arab adabiyotidagi xos bo’lib, ajam she’riyatida deyarli qo’llanmagan va maxsus hech qanday doiraga kiritilmagan.⁵⁰ “Mezon ul-avzon” da 19 ta bahrni keltiradi va ularning har bittasini alohida baytlar bilan ifodalab, ohangdorlikni kuchaytiradi. Navoiy aytishicha, bahrning ba’zilaridan, ya’ni komil va tavil bahrlarida turkiy g’azallar yozish mumkin.

Bayt:

Furoqingda jon berdim, boshimg’a qadam etkur,
Agar xud-tirik ermas, chu yolg’on dedim o’ltur.⁵¹

Ushbu. bayt tavili musammani solim vaznida yozilgan, ya’ni taqte’ bo’yicha faulun mafoiylun faulun mafoiylun. Demak, rostdan ham ushbu bahrlarda g’azal yozish mumkin ekan.

Mezon ul-avzonda keltirilgan bahrlar miqdori 19 taligini keltirib o’tgan. Bular 1) hazaj, 2) rajaz, 3) ramal, 4) munsarih, 5) muzori’ 6) muqtazab, 7) mujtass, 8) sari’, 9) jadid, 10) qarib, 11) xafif, 12) mushokil, 13) mutaforib, 14) mutadorik, 15) komil, 16) vofir, 17) tavil, 18) madid, 19) basit. Bundan tashqari Navoiy har bir bahmi 3 xil vazn turiga bo’lib o’rganadi: musamman ruknli vaznlar, musaddas ruknli vaznlar va murabba’ ruknli vaznlar. Mazkur bahrlarning har biriga baytlar orqali misollar keltirib asarni mukammallashtirgan.

Alisher Navoiy risolasida vaznlar turkiy tildagi baytlar bilan dalillangan. Xususan, Xoja Ismat Buxoriy, Husayniy o’zining ijodidan buni yaqqol bilishimiz mumkin.⁵² Misol uchun bu vaznda Xoja Ismat Buxoriy aytur:

⁵⁰ <https://doi.org/10.5281/zenodo.10516422> B.191

⁵¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. Yigirma tomlik. 16- tom. Mezon ul- avzon. Toshkent: Fan nashriyoti, 2000. – B.90

⁵² D. Yusupova (Toshkent, O’zbekiston) dilnavoz@navoiy-uni.uz

“Ko’ngulkim senga oshuftadur, ey pari,
Bu ishq ichra sendin o’zgani ne kari?”

Manosi: “Ey go’zal, yuragim senga oshiqdir, bu sevgi yo’lida sendan boshqa birovning men uchun qadri yo’q”

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” risolasi bilan nafaqat o’z davrining, balki butun turkiy adabiyot tarixining eng yuksak ilmiy-badiiy cho’qqilaridan biriga ko’tarildi. Mazkur asarni ham nazariy, jihatdan, ham amaliy misollar – o’z g’azallari, shuningdek Xoja Ismat Buxoriy va Husayn Boyqaro baytlari orqali dalillaydi. Shu jihatdan, bu risola nafaqat ilmiy qo’llanma, balki go’zal adabiy namunalarga boy badiiy manba sifatida ham qimmatlidir. Asarning eng katta ahamiyati shundaki, u turkiy tildagi she’riyatning nazmiy imkoniyatlarini isbotlab, o’zbek adabiyoti taraqqiyotiga mustahkam nazariy poydevor yaratdi. Navoiy “so’z ilmi” ni, ya’ni tildagi ohang, vazn, ma’no uyg’unligini mukammal darajada uyg’unlashtirib, o’z asari orqali kelajak avlodlarga nafaqat aruzni, balki she’riyatning ruhini his etishni ham o’rgatdi. “Mezon ul-avzon” – bu ilm va go’zallik uyg’unligi, so’z san’atining eng nozik sirlari ochuvchi adabiy durdona asar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. Yigirma tomlik. ‘On oltinchi tom. Mezon ul-avzon. -T.: Fan nashriyoti 2000. -329 b.
2. Yusupova.D. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” risolasi uchun asos bo’lgan nazariy manbalarning komparativistik tahlili. // Oltin bitiglar. -60-80-betlar.
3. Karimova02 (munozara | hissa) 2023- yil 17- yanvar
4. D.Yusupova (Toshkent, O’zbekiston) dilnavoz@navoiy-uni.uz
5. <https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/50327>
6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10516422>